



BETAKROR VA NOYOB ILMIY-MA`NAVIY MEROSIMIZ KUCH- QUDRAT VA ILHOM MANBAI.

Yakubova Sitara Sharifovna
BMTI akademik litseyi o`qituvchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada yurtimiz buyuk ipak yo`li chorrahasida joylashib , keng madaniy savdo aloqalari olib borganligi, G`arb mamlakatlari bilan diplomatik, ilmiy , madaniy munosabatlar o`rnatganligi va azaldan yuksak sivilizatsiyalar o`chog`i bo`lganligi haqida ma`lumotlar keltirilgan .Shuningdek mamlakatimiz hududida IX-XII va XIV-XV asrlarda ro`y bergan birinchi va ikkinchi renessans davrlarida ilm-ma`rifat va maorif sohasida yuz bergan tub o`zgarishlar , yurtimiz hududidan yetishib chiqqan buyuk bobokalonlarimiz Muhammad al- Xorazmiy, al- Farg`oniy, Abu Nasr Farobiy , Abu Ali ibn Sino , Abu Rayhon Beruniy va boshqa buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini chuqur o`rganish , shuningdek, Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan shart-sharoitlar va bu davrdagi ilmiy muhit haqida so`z boradi. Birinchi renessans davrida Yevropa Uyg`onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san`at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo`lsa, Sharq Uyg`onish davrining o`ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, geodeziya , tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlar, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo`lganligi haqida fikr boradi.

Tayanch so`zlar: Buyuk ipak yo`li, Sivilizatsiya, Renessans, Algoritm, Ma`mun akademiyasi, Sharq Arastusi, Ulug`bek akademiyasi, Uchinchi Renessans.

O`zbekistonda ta`lim-tarbiyani rivojlantirish bo`yicha keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tarixni o`rganish , qadimiy ajdodlarimiz haqida ma`lumotga ega bo`lishga qaratilgan chora – tadbirlar bugungi kunda o`z samarasini berib kelmoqda.

“Hamma o`z tarixini ulug`laydi. Lekin bizning mamlakatimizdek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo`q. Bu merosni chuqur o`rganishimiz , xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak.”

SH.M.MIRZIYOYEV

Buyuk ipak yo`lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o`choqlaridan biri bo`lgan. Buyuk ipak yo`li milodiy XVI



asrga qadar Sharq va G`arb xalqlari o`rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida muhim o`rin tutgan. Mamlakatimiz buyuk ipak yo`lining chorrahasida joylashgan va boshqa davlatlar bilan keng madaniy aloqalar olib borgan. Har bir davlatning iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilaydigan asosiy ko`rsatkich – bu savdo aloqalarida ishtiroki hisoblanadi. Mamlakatimiz xalqlari asrlar davomida buyuk ipak yo`li deb atalgan xalqaro savdo yo`lida istiqomat qilganligi va keng miqyosda iqtisodiy aloqalar olib borganliklari ularning turli sohalarda erishgan yutuqlaridan dalolat beradi. Qadimgi Xitoyning Sian shahridan boshlanib 12 ming kilometr uzunlikdagi masofaga cho`zilgan va Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv singari qadimgi shaharlar orqali o`tib O`rtayer dengizi sohillarigacha yetib kelgan. Xalqaro savdoda Xitoy bilan aloqada bo`lgan davlatlar orasida mamlakatimiz hududidagi So`g`diyona va Baqtrya muhim o`rin egallagan. Savdo sohasida so`g`diylar mohir bo`lishgan. Ular tijorat ishlari bilan faol qatnashib, So`g`diyonadan ancha uzoqda ham savdo-sotiq olib boradigan manzillar tashkil etganlar. Shunday manzillar Sharqiy Turkiston, Xitoy va Yaponiyada qurilgan.

Buyuk ipak yo`li davlatlar o`rtasida faqat iqtisodiy aloqalar vositasi bo`lib qolmasdan madaniy, ilmiy va diplomatik munosabatlar uchun ham xizmat qilgan. Buyuk ipak yo`li Sharq va G`arb mamlakatlari xalqlarini o`zaro madaniy aloqalardan bahramand bo`lish imkonini berdi. Buyuk ipak yo`li sharofati bilan O`rta Osiyo xalqlari G`arb va Sharqning iqtisodiy va madaniy yutuqlari bilan tanishdilar. O`z navbatida G`arb mamlakatlari xalqlari esa O`rta Osiyo xalqlarining yuqori darajada rivojlangan madaniyatini o`zlari uchun kashf qildilar.

Mamlakatimiz qadimdan tamaddunlar beshigi bo`lib, ayni shu hudud azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o`choqlaridan biri bo`lgan. Bu zamin tuprog`ida qancha-qancha buyuk shoirlar, yetuk mutafakkirlar, ulug` olimlar-u ziyolilar, matematiklar-u tabiblar yetishib chiqqan. Bu go`sha zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar o`zlaridan qoldirgan meroslariga butun dunyo lol qolgan. Aynan buyuk bobokalonlarimiz sharofati bilan mamlakatimiz hududida 1-va 2-renessans ya`ni uyg`onish davrlari ro`y berdi. Renessans atamasi dastlab Yevropada qo`llanilgan bo`lib, bu so`z “fransuzcha-qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug`ilmoq” degan manolarni anglatadi. Dastlab Italyan gumanistlari tomonidan tilga olingan bu atama Yevropada XIV-XVII asrlarda ro`y bergan Uyg`onish davriga nisbatan qo`llanilgan. Markaziy Osiyo hududida Uyg`onish davri Yevropaga nisbatan ancha oldin IX-XII va XIV-XV asrlarda ro`y bergan. Uyg`onish davri deyilganda ilmfan, madaniyat-ma`rifat va ma`naviyat yuksalgan davr tushuniladi. Yevropa



olimlaridan Burxart Uyg`onish davrini alohida tipdagi madaniyat deb hisoblagan. Xeyzing esa o`zining “O`rta asrchilikning kuzi” asarida Uyg`onish davri- o`rta asr madaniyatining intiho davri deb hisoblasa, boshqa olimlar Uyg`onish davri yangi davr madaniyatining boshlanishi, o`rta asr turg`unligidan yangi davrga o`tish bosqichi deb hisoblaganlar. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida ilm-fan, madaniyat yuksak bosqichga chiqqan va shu hudud jahonni hayratga solgan buyuk mutafakkirlarni yetishtirib berganligi, ilm-ma`rifat beshigi sifatida tarixda “musulmon madaniyati”, “arab madaniyati” deb nomlangan tushunchalar bilan baholangani bejiz emas. Buyuk ipak yo`li markazida joylashgan Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur kabi markaziy shaharlarda yirik ilmiy markazlar bunyod etilgan. Movarounnahr va Xorazm jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shgan buyuk siymolarni o`z bag`rida tarbiyalab kamolotga yetkazdi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy bobomiz o`zining “Al-jabr val muqobala” asari orqali butun dunyo matematikasi tarixiga algebra atamasini olib kirdi va bugungi kunda Xorazmiy nomi matematika fanida Algoritm shaklida o`z ifodasini topdi. Al-Farg`oniy bobomiz esa qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. Bizning davrimizgacha 8 ta asarlari yetib kelgan bo`lib, “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum” kitobi asosiysidir. Al-Farg`oniy faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Yevropa mamlakatlarida ham astronomiya ilmi rivojini boshlab bergan buyuk bobokalonimiz hisoblanadi.

Ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga ulkan ta`sir ko`rsatgan, Sharqda “Muallim us-soniy”, “Sharq Arastusi” nomi bilan shuhrat topgan buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy fanning turli sohalariga oid 160dan ortiq asar yozib qoldirgan. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv haqida” nomli bir qator asarlarni bizga meros qilib qoldirdi. “Islom madaniyatining oltin asri” deb atalgan 1-renessans davrida Muhamad (s.a.v) payg`ambarimizdan keying inson hisoblangan Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan “Al-jome as-sahih” asariga 7275ta hadis kiritilgan. Buxoriyning 4 jilddan iborat “Al-jome as-sahih” asari o`zbek tilida nashr etilgan. Bu davrda yana Imom Termiziy, Imom moturidiy, Burhonuddin Marg`inoniy, Abu Mu`in Nasafiy kabi ulug`ulamolar yetishib chiqqan. Buyuk Imom Buxoriy hazratlarining “Al-jome as-sahih” asari “Barcha ezgu amallar niyatga bog`liq, har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi” degan hadis bilan boshlanishida albatta chuqur ma`no bor.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta`kidlab o`tganlaridek “Har ikkala Uyg`onish davrida ham eng muhim jihat – davlat rahbarining yuksak e`tibori bo`lib kelgan.” Xuddi shunday Movarounnahrda Somoniylar hukmronligi o`rnatilishi bilan



ilm ahliga yaratilgan shart-sharoitlar yoki Xorazmda Ma`muniylar hukmronligi davrida barpo etilgan “Dor-ul -hikma va maorif”-“Ma`mun akademiyasi”ning 1004-yilda shakllanishi bularning barchasi ilm-fanning yuksalishiga yaratilgan sharoitlar hisoblanadi.Ma`mun akademiyasi tarkibida buyuk ajdodlarimizdan Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy , Abu Nasr ibn Iroq,Abulxayr ibn Hammor va boshqa ko`plab buyuk ajdodlarimiz xizmat qilganlar.

Yurtimiz hududida ikkinchi renessans davri Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida yuz berdi.Bu davrda Movarounnahr va Xuroson hududida ko`plab masjid-u madrasalar barpo etilgan va ilm-fan rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilgan. Birgina Hirot shahrining o`zida 36 ta madrasa mavjud bo`lib , bu madrasalarda vas hu hududda joylashgan xonaqohlarda ta`lim olish uchun turli mamlakatlardan talabalar kelar edi. Amir Temur boshqa hududlarni bosib olgan vaqtida ham ilm ahliga hech qachon ziyon yetkazmagan.Bosib olingan hududdagi ziyoli insonlarni to`plab ular bilan savol-javob qilgan. Bu esa uning mamlakatida maorif madaniyati rivojlanishiga ulkan hissa qo`shgan.Amir Temurning ilm ahliga munosabatini uning tarixini yozib qoldirgan Ibn Arabshoh shunday ta`kidlaydi: “Amir Temur olimlarga mehribon bo`lib, sayyid-u shariflarni o`ziga yaqin tutardi. Ulamolalar va fozillarga to`la-to`kis izzat ko`rsatib , ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko`rardi. Ularning har birini o`z martabasiga qo`yib, o`z ikromi hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan o`z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi . Ular bilan mazmunli suhbat ham yuritar ediki, bu bahsda insof-u hashamat bo`lardi”-deya e`tirof qilgan. Amir Temur saltanatida shunday muhit yaratdiki, bu olimlar-u fuzalolarga ijod qilish uchun yetarli imkon edi. Amir Temurning avlodlari ham uning ma`rifatparvarlik ishini davom ettirganlar. 20 yil atrofida olib borilgan yulduzlar harakatini uzluksiz kuzatish ishlari natijasida 1018ta yulduzlarning koordinatalarini o`rgangan Mirzo Ulug`bek zamonida ham ilm-fan ravnaq topdi. Ulug`bek akademiyasida eronlik, rumlik olimlar faoliyat ko`rsatardi. Xususan, Ulug`bek rasadxonasida eronlik mashhur olim G`iyosiddin Koshiy xizmat qilgan.Shuningdek, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi , Mu`iniddin Koshiy , Jaloliddin Astrobody , Nizomiddin Birjandiy , Mirim Chalabiy, Muhammad Husayniy va boshqalar Ulug`bek akademiyasida faoliyat ko`rsatardilar.Temuriylar davrida tibbiyot olamida mashhur bo`lgan asarlar yaratildi . Burhoniddin Nafis “Kasalliklarning sabablari va alomatlari”, G`iyos Mutabbibning “ Kasalliklar shifosi “, Mansur ibn Muhammadning “ Inson tanasi va uning a`zolari holatining sharhi” va boshqalar yaratildi.



Temuriylar davri olimlari jo`shqinlik , iste`dod va tinimsiz mehnatlari-yuksak yutuqlarining tarkibiy qismi hisoblangan. Yuksak yutuqlarga esa faqat shaxsiy fazilatlar, qobiliyatlargina emas insonning shaxsiy salohiyati katta ahamiyat kasb etadi. Bizning tuprog`imizda shuqadar buyuk zotlar yetishib chiqqanki, ularning o`lmas asarlari bizlarni doimo olg`a qadam tashlashga undaydi. Bizning qonimizda buyuk ajdodlarimizning qonlari oqib turibdi. Biz ajdodlarimizga munosib avlod bo`lib, ularning izlaridan bormog`imiz , ular yaratgan asarlarini o`rganish orqali o`z mamlakatimiz istiqboliga munosib hissa qo`shishimiz darkor.Ona yurtimiz dunyo ilm-faniga poydevor bo`lgulik buyuk kashfiyotlarni amalga oshirgan buyuk mutafakkirlarni yetishtirib chiqargan. Ajdodlarimiz tajribasidan unumli foydalangan holda mustaqil O`zbekistonimizda uchinchi renessansni amalga oshirish biz yoshlarning qo`limizdadir.Ikkinchi renessans davrida temuriylar tomonidan ilm-maorif ahliga yaratilgan sharoitlar bugungi kunda O`zbekistonimizda biz yoshlarga Prezidentimiz tomonidan yaratilmoqda. Ajdodlarimiz asarlarini chuqur tahlil qilish , ularning ilmiy merosini o`rganish orqali o`z ma`naviy ongimizni kengaytirishimiz lozim. Zero buyuk allomamiz Najmiddin Kubro hazratlari “ Muvaffaqiyatni – sa`y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa- loqaydlik va dangasalikda ko`rdim” deb be`jiz ta`kidlamaganlar. Haqiqatan ham , biz faqat sa`y-harakatlarimiz orqali ajdodlarimizga munosib avlod bo`lishimiz mumlin. Ta`lim va tarbiya beshikdan boshlanadi. Faqat ma`rifat insonni kamolga, jamiyatni esa taraqqiyotga yetaklaydi. Shu bois bugungi kunda biz yoshlar tinimsiz mashq qilishimiz o`z bilim salohiyatimizni oshirishimiz lozim.